



# TIBBIYOTNOMA

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI** № 03 2023 YIL 27 MART

## XUSH KELIBSAN NAVRO'ZI OLAM! YANGILANISH, YASHARISH BAYRAMI MUBORAK!



Butun borliqni yashillikka burkab, qadam qo'yan fasllar kelinchagi bahor nafasi qiru adirlar, bog'u roglarda bo'y ko'tsatib, qalblarga ajib iliqlik, xush kayfiyat ulashmoqda.

Uyg'onish va yangilanish, qut-baraka elchisi Navro'z ayyomi shukuhidan dillarimiz yayramoqda. Aytish joizki, Navro'z o'zaro qadr-qimmat, xayru saxovat, mehr-oqibat timsolidir. Ezgulik, saxovatga yo'g'rilgan uyg'onish, yasharish ayyomi bu yil dillarimizni yana quvonchu shodlikka chulg'adi.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan aholining salomatligini mustahkamlash, farovon va baxtli hayotini ta'minlash, o'z sohasining yetuk mutaxassislarini tayyorlash borasida keng ko'lamli ishlari amalga oshirilmoxda. Shu jumladan, professor-o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlash, olyi ta'lim tizimini tubdan isloq qilish va yetuk mutaxassislarini tayyorlash ishlari yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentimiz tomonidan 2023 yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"

deb nomlanishi ham yoshlarning oydin kelajagini ta'minlash masalasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligini yana bir marta tasdiqlaydi.

Fursatdan foydalanib hurmatli o'qituvchi-professorlar va talaba yoshlarni go'zal, tarovatli Navro'z ayyomi bilan chin dildan qutlayman. Sizlarga avvalo sog'likomonlik, olalarigingiza tinchlik-xotirjamlik, baxt-saodat tilayman. Ilmiy izlanishlarigiz va o'qishlaringizda omad yor bo'lsin. Navro'zi olamning hayotbaxsh nur ziyosi qalbingizni poklab, nurrafshon aylasin.

Barchangizga Vatanimiz ravnagi yo'lidagi mas'uliyatlari va sharafli faoliyattingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman! Navro'z – yangi kun demakdir. Har bir xonadonga yangidan yangi rejalar, maqsadlarning qaror topishidek tole' nasib etsin. Navro'z shukuh doimo qalblarimizni quvonchlarga to'ldirsin!

Yangilanish, yasharish bayrami muborak bolsin!

A.SHADMANOV,  
Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori

*Har yili xalqimiz azaliy va ezgu qadriyatlarimizni o'zida mujassam etgan, ona tabiat va odamlar ruhiyatida yuz beradigan yasharish, yangilanishni to'la namoyon qilib kelayotgan Navro'zi olamni o'zgacha shukuh bilan qarshi oladi.*

## TALABALAR BAHORI – 2023

Toshkent shahar Yoshlar markazida "Har kuning Navro'z bo'lsin, jonajon O'zbekistonim!" g'oyasi asosida Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalarining "Talabalik bahori – 2023" festivali o'tkazildi.

An'anaga aylangan mazkur festival davomida talabalar tomonidan milliy qadriyatlарimizni aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari, badiiy, folklor chiqishlari, kuy-qo'shiqlar ijro etildi hamda 9 ta nominatsiya bo'yicha iste'dodli va iqtidorli talaba-yoshlardan bellashishidi.



(Davomi 2-betda)

Hikmat



*Bunyodkorlik, yangilanish va mehr-muruvvat ayyomi.*

Hikmat





## TALABALAR BAHORI – 2023

(Boshi 1-betda)

"Talabalik bahori – 2023" festivalining ikkinchi qismida talabalar "Eng yaxshi folklyor jamoa", "Xushovoz estrada xonandası", "Mumtoz va maqom qo'shiq ijrochisi", "Yakkaxon milliy raqs", "Yakkaxon zamonaviy raqs", "Ommaviy milliy raqs", "Ommaviy zamonaviy raqs ijrochisi", "Eng yaxshi mahoratlı musiqa sozi ijrochisi", "Eng yaxshi boshlovchi suxandon" nominatsiyalarida bellashishdi.

Ko'tarinkи ruhda o'tgan bayram tadbirи talabalarining darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli hamda ko'ngilli o'tkazish, ularning ma'naviy va madaniy saviyasini oshirish, san'atga bo'lgan ishtiyoyq va qiziqishlarini yuksaltirish, shuningdek, milliy qadriyatlarimizni o'rganishga xizmat qiladi.

TTA Matbuot xizmati

## NAVRO'Z-TINCHLIK VA BIRDAMLIK BAYRAMI

*"Ilohi har kuning Navro'z bo'lsin,  
Hamisha toleying feruz bo'lsin!"  
Ogahiy*

**Bahor – fasllar gulshani, uyg'onish fasli. Butun borliq, ona tabiat barq urib yashnaydi, yangilanadi. Tirik jonzot borki yangi kunning tug'ilishidan bahra oladi, zavqlanadi.**

Yil fasllarining almashinishi, qahraton qishning bahorga o'rın bo'shatib berishi, qish bo'yı mudrab yotgan dalalarda taft paydo bo'lub, sepilgan urug'larning astasekin nish otishi tabiiy muvozanatga asoslangan. Insonning butun hayoti shu muvozanatda o'z ifodasini topadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Suv va quruqlik, kun va tun, tog'laru yalangliklar ortasida ilohiy bir muvozanat bor. Uning boshida yilda bir keladigan Navro'z turadi. Navro'zda bu donishmand dunyo ko'rakmlik libosiga burkanadi, tabiat uyg'onadi, tuyg'ularimizda ham uyg'onish, tiniqlashish yuz beradi, ko'chalar, hovlilar tartibga keltiriladi. Hosil dalalari yetilib ko'pchiydi. Qushlar simfoniyasi, ko'klamoyim qo'shiqlari avjiga chiqadi. Bu ayyomda bir-birimizga mehribon va yaqin bo'lub qolamiz. Ezgu niyatlar qilib, bir-birimizni bag'rimizga bosamiz. Gina-kuduratlar unutiladi, qish bo'yı unniqcan xonalarning derazalari ochilib, musaffo havo vujudimiza singadi. Doshqozonda sumalak qaynaydi. Qozon atrofida tabarruk onaxonlarga qo'shilib bo'y yetgan qizlar, kelinchaklar raqsga tushadilar. Bu munavarliklar inson qalbiga ko'chadi, qalb bog'larida ham tozarish yuz beradi. Bu bayram barcha xalqlarning do'stlik va birlik ramziga ega bo'lgan umumxalq bayramidir.

Navro'z bayramining qachon vujudga kelgani haqida bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalardan shu narsa ko'rinishdi, u O'rta Osiyo, Eron va Afgh'onistonda Ahamoniylar davrida (miloddan avvalgi VI asrlarda) keng tarqalgan. Shu ma'noda Navro'zning tarixini 25-30 asrga ega deb taxmin qilish mumkin.

Navro'z qachon, qanday vujudga kelganidan qat'iy nazar, u har tomonlma ilmiy asoslanib, koinot va tabiat qonuniyatları hisobga olingan holda joriy etilgan. Chunonchi, quyoshning hamal burjiga kirishi, kunduzning uzaya boshtashi, yorug'likning kuchayishi, tabiatning jonlanishi – Navro'z deb qabul olingan (Navro'z – «yangi kun» degan ma'noni bildiradi). Navro'z eski quyosh kalendari hisobida farvordin oyining boshlanishiga (hозирги 22 martga) to'g'ri kelgan. Bu kun «kichik Navro'z» deb

atalgan va bu kundan boshlab tabiatdagi hamma narsa amalga kiradi, deb hisoblangan. U haqiqiy xalq bayrami bo'lib, mehnat ahli orasida katta tantanalar bilan nishonlangan.

Navro'z – turkiy xalqlarning eng ommaviy va go'zal bayramidir. Ushbu bayramning kirib kelishi bilan ko'pgina o'zbek oilalar sumalak, halim, ko'k somsa, palov kabi turli milliy taomlarni tayyorlaydilar. Mazkur taomlar inson organizmiga foydalı bo'lgan vitaminlarga boydir. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek xalqining qadimiy urf-odatlari va an'analari kuchga kirdi, jumladan Navro'z bayramini nishonlash o'ziga xos tusga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek "Navro'z o'zining o'lmas ruhi, umuminsoniy g'oyalari bilan bashariyat hayotidan tobora chuqr o'rin egallamoqda".

Jumladan mazkur bayram 2009 yil 30 sentabrda insoniyat madaniy meroсининг ajralmas qismi sifatida YUNESKO tomonidan umumjahon nomoddiy madaniy merostrar ro'yxatiga kiritildi. 2010 yilning 19 fevral kuni BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida esa 21 mart "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'lon qilindi va barcha mamlakatlarni mazkur qadimiy bayramni dunyoda keng targ'ib etishga chaqirdi. Qabul qilingan rezolyutsiyada Navro'z bayrami turli xalqlar o'tasidagi madaniy alogalar va o'zaro hamjihatlikni rag'batlantirish, o'zaro birdamlik, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari, xalqlar o'tasidagi do'stlilik mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Navro'zda tinchlik va birdamlik, totuvlik va ahil qo'shnichilik kabi ulug' qadriyatlariligi suriladi, uning qadimiy qadriyatlar esa madaniy marosimlarda madaniy xilma-xillik va insonparvarlik, sog'lon turmush tarzi va yashash sharoitini yangilash kabi odatlarni avloddan-avlodga o'tib kelishiga zamin yaratadi.

Sh.ABDURASHITOVA,  
Jamoat salomatligi va menejment  
kafedrasи katta o'qituvchisi,  
Zahro XOLMATOVA,  
Tibbiy profilaktika fakulteti talabasi





## HINDISTONLIK TALABALAR UCHUN MAXSUS MADANIY TADBIR

**Ma'lumki, Toshkent tibbiyot akademiyasida  
Hindiston bilan tibbiy ta'lim sohasidagi hamkorlik  
faoliyati tobora mustahkamlanib bormoqda.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan hindistonlik talabalari uchun maxsus madaniy tadbir tashkil etildi.

Ushbu milliy madaniyat tadbiriga Hindistonning mamlakatimizdiz favqulodda va muxtor elchisi Manish Prabxat, elchixona diplomatlari hamda L.B.Shastri nomidagi Hind madaniyati markazi vakillari tashrif buyurdi. Akademiyada tahsil olayotgan hind talabalari o'zining milliy madaniyati, urf-odatlari aks etgan kuy, raqslari bilan faol ishtirok etib, iqtidor va istedodlarini namoyon qilishdi.



## ILM RAVNAQI YO'LIDA

**Yoshlik bu – kelajak va ezungulik sari olg'a qadam tashlash va intilish davri!  
Yoshlar jamiyatimizning asosiy kuchidir. Bugun O'zbekiston yoshlar uchun  
imkoniyatlar mamlakatiga aylandi. O'qish, bilim olish, til o'rGANISH va kasb  
egallash uchun yaratilgan sharoitlarning cheki yo'q.**

Hech birimizga sir emaski, mamlakatimiz yoshlarining har tomonlama yuksak salohiyatlari inson bo'lib kamol topishi yo'lida barcha tizimlarda izchil islohotlar amalga oshirilmogda. Ushbu tizimli islohotlarning ijobji natijasi va yoshlarga oid davlat siyosatining samarasini bugungi kun yoshlarining jamiyatda munosib o'r'in egallashga bo'lgan ishtiyogi va erishayotgan yutuqlarida ko'rishimiz mumkin.

Shu jumladan, Toshkent tibbiyot akademiyasida ham yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qancha chora-tadbirlar tizimi mavjud. Bular qatoriga Prezident stipendiyasi, Rektor stipendiyasi va atoqli olim akademiklar V.V.Vohidov, O'.A.Aripov, N.M.Majidov, K.A.Zufarov M.S.Abdullaxodjayeva, T.O.Daminov nomli stipendiyalari ta'sis etilgan va bakalavr hamda magistratura talabalari sazovor bo'lib kelishmoqda.

Shuningdek, Erudit (bilimdon), Poliglot (ko'p til biluvchi), Biblioman (kitobxon), Sog'gom turmush tarzi targ'iботchisi, Yosh tadqiqotchi, Ijodkor, Ixtirochi, Namunali sportchi nominatsiyalari bilan bakalavr va magistratura talabalari rag'batlantirilib kelinmoqda.

"Rektor stipendiyasi" – iqtidorli

yoshlarni rag'batlantirish, ularni ilmiy-ijodiy faoliyatga jalb qilish va iqtidorli talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida har semestr natijalar bo'yicha ajratilgan oylik stipendiya bo'lib, eng bilimli va shijoatli talaba yoshlar sazovor bo'ladi.

Akademiya miqyosida Respublika va Xalqaro fan olimpiadalari, Talabalar ilmiy jamiyatni tanlovi tashkil etilgan bo'lib, iqtidorli talabalar har yili tibbiyot institutlari va xorijiy mamlakatlarning markazlari tomonidan tashkil etiladigan talabalar konferensiyalarida faol qatnashadilar.

Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi "Klinik laborator diagnostika" bazasida ham davolash va kasbiy ta'lim fakultetlari talaba yoshlarining bilim va malakalarini oshirish, ularga ushbu fan borasida kerakli barcha ma'lumotlarni o'rgatish yo'lda qo'yilgan. "Klinik laborator diagnostika" fani odam organizmidagi barcha organlarning jumladan qon yaratish tizimi, yurak, buyrak, jigar faoliyati va gemostaz tizimini hujayra darajasida o'rGANISHGA bag'ishlangan. Dastlab fiziologik jihatdan keyin patologik shakllarini birma-bir ko'rib chiqib, bunda aniqlangan o'zgarishlar natijasiga

ko'ra kasalliklarga to'g'ri tashxis qo'yish, differensial diagnostika qilish va davolashni nazorat qilish to'laqonli o'rgatilib kelinmoqda. Zamonaviy tibbiyot odam organizmida kechayotgan ko'pgina biologik o'zgarishlarni aniqlash bilan bog'liq. "Klinik laborator diagnostika" fani nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. U boshqa zaminiy fanlar bilan birgalikda organizm to'g'risida yaxlit ma'lumot berish, shu bilan birga talabada klinik fikr yuritishni rivojlanishini ta'minlaydi. Talabalarga ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar o'tish bilan birga laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy ko'nikmalarni o'zları mustaqil ravishda bevosita qo'llari bilan bajarishiga imkon yaratib beramiz. Shuningdek, kasallik tarixlaridagi tahlil natijalarini interpretatsiya qilish orqali kasalliklarni bir-biridan farqlash, tashxislash va diagnoz qo'yish tajribasiga ega bo'lishadi.

**D.ZAYNUTDINOVA, Sh.BABADJANOVA,  
N.MUSAYEVA, Z.ISLAMOVA,  
N.NURIDDINOVA,  
Gematologiya, transfuziologiya  
va laboratoriya ishi kafedrasi  
professor-o'qituvchilar**



## **Toshkent tibbiyot akademiyasi mamlakatimizdagi tibbiyot institutlari uchun tayanch tibbiyot olyi ta'lif muassasasi hisoblanib, sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda doimo faol oliygoh bo'lib kelmoqda.**

Mamlakatda tibbiy kadrlarni tayyorlash, tibbiyot ilm-fani, tibbiy ta'lif tarixi va uning rivoji bevosita tibbiyot akademiyasida faoliyat yuritgan, yuritayotgan akademiklar, professorlar, ilm-fan sohasi namoyondalari bilan bog'liq. 100 yoshni qarshilagan Toshkent tibbiyot akademiyasi bugunga qadar 90 mingdan ziyod malakali shifokorlar tayyorlab berganini alohida e'tirof etish joiz. Ushbu oliygoh mamlakatga chucher bilimga ega kadrlarni yetishtirib berish bilan birga mamlakatimizdagi tibbiyot olyi ta'lif muassasalarini paydo bo'lishi va shakllanishda ham muhim o'rinni tutadi.

Albatta inson munosib sharoitda ta'lif-tarbiya olib, huquq va manfaatlari jahon standartlariga muvofiq ta'minlangandagina davlat barqaror rivojlanadi. Shuning uchun ham, bugungi kunda jahon reytingida yurtimiz har tomonlama oldinlamoqda. Asosiy sabab esa inson qadrini, huquq va manfaatlariaga birinchi darajaliali ahamiyat berilishida deb aytish mumkin.

Uzoq vaqt davomida ishlamay turgan Toshkent tibbiyot akademiyasining bosh o'quv binosini Raqamli Universitet talabalariga mos ravishda jihozlangan holda "Insonga e'tibor va sifatlari ta'lif yili"da topshirilishi a k a d e m i y a n i g talabalarini va professor-o'qituvchilariga katta quvondi baxsh etadi.

3000 nafr talaba o'qiydigan ushu binoda talabalarning o'qishi, o'z ustida mustaqil ishlashlari hamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi uchun 89 ta zamonaviy jihozlangan o'quv va amaliyot xonalari, ma'ruba zallari, 14 ta o'quv va 10 ta ilmiy tadqiqot laboratoriyalari, 20 dan ortiq sotsial zonalar, 680 o'ringa ega (shundan 180 o'rinni yozgi) oshxona va bufet, kitob do'kon, talaba va xodimlarni farzandlari uchun bolalar bog'chasi kabi imkoniyatlar yaratilgan.

O'zbekistonda birinchi bo'lib Toshkent tibbiyot akademiyasida 2022 yilda Simulyatsion o'qitish kafedrasi tashkil qilindi. Simulyatsion mashg'ulotlar davomida talabalar klinikada aniq simptomlari bo'lgan bemor bor yoki yo'qligidan qat'i nazar, o'quv dasturida ko'zda tutilgan barcha kasalliklar bilan tanishish, diagnostika va

davolash maqsadida 250 dan ortiq amaliy ko'nikmalar va muolajalarini o'rganishadi. Markazda talabalar 1-bosqichdan boshlab bemorlarni parvarish qilish ko'nikmalarini o'zlashtirishsa, katta kurs talabalarini va magistrantlarga o'quv dasturiga muvofiq tibbiy manipulyatsiyalarni bajaradi.

TTA Simulyatsiya markazi virtual ko'ptarmoqli klinika tamoyili asosida tashkil etilgan. Markazda tez va shoshilinch yordam ko'stish, qabulxona, reanimatsiya, operatsiya xonasi, jarrohlik, bolalarga

Raqamli universitet tizimida ishllovchi Moodle va HEMIS platformasida talabalar uchun – fan dasturlari, dars jadvali, o'quv reja, davomat va elektron reyting daftarchasi mavjud. Elektron jurnal va reyting daftarchasi orqali talabalar olgan baholarni ularning ota-onalari ham kuzatishlari mumkin. Bu platformaning afzallik tomonlari ochiqlik, shaffoflik va byurokratik to'siqlarni oldini olinganligi va jarayonlarni avtomatlashtirilganligida deb aytish mumkin. Talabalar QR kodli ma'lumotnomha va diplomlarini ham olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Nafaqat Toshkent tibbiyot akademiyasi olimlari va ilmiy izlanuvchilar uchun, balki Respublika miqiyosidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun Molekulyar genetika, klinik immunologiya, hujayra texnologiyalari va farmako-toksikologik, gematologik, ekologiya va shu kabi 10 dan ortiq boshqa laboratoriyalarni o'z ichiga olgan Biotexnologik tadqiqotlar markazi tashkil qilinib, 44 turdagiz zamonaliviy ilmiy tadqiqot uskulularni bilan jihozlangan. Bundan tashqari, to'rtta – tibbiy genetika, hujayra texnologiyalari, immunologiya, elektron mikroskopi ilmiy maktab yaratilmoqda.

Raqamlashtirilgan Axborot-resurs markazi akademianing o'quv, ilmiy ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarini axborot resurslari bilan ta'minlovchi ziyo maskani deb aytish mumkin.

ARMda elektron xizmat kengayishini ta'minlovchi yangi, xalqaro amaliyot tajribasidan o'tgan xizmat ko'stish shakkiali va ilg'or dasturiy mahsulotlarni tizimli asosda joriy etish maqsadida "Elektron resurslar bilan ishlash", "Raqamlashtirish", "Xorijiy adabiyotlar", "Ilmiy-tibbiy va o'quv adabiyotlari" bo'limlari faoliyat ko'satmoqda. Axborot-resurs markaz bir vaqtning o'zida 500 nafr talabaga xizmat ko'sata oladigan o'quv zali va 300 ta kompyuterli virtual kutubxonaga ega. Markazning QR-kutubxonasida talabalar istalgan kitob va ilmiy jurnallarni mobil qurilmalari yordamida skanerlab, onlayn o'qishlari yoki yuklab olishlari mumkin.

(Davomi 5-betda)

Alisher SHADMANOV,  
Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori

## **KONSTITUTSIYA – XALQIMIZ ORZU-ISTAKLARI KO'ZGUSI**



yordam ko'stish, tug'ruq zali va ginekologik operatsiyalar, terapiya, oftalmologiya, LOR, stomatologiya xonalari yuqori darajadagi simulyatorlar bilan hamda maxsus jihozlangan xalq tabobati, ekspert zonasasi, imtihon uchun OSKE xonalariga ega.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Bosh binosida Raqamli tibbiyot markazi tashkil etilgan bo'lib, markaz raqamli universitet, test markazi, telemeditsina, elektron poliklinika, elektron statsionar, elektron dekanat VR va AR texnologiyalar, kompyuter sinflari va boshqa elektron dasturlarni o'z ichiga olgan.

E'tiborli jihatli test markazida talabalar o'ttasida imtihon sinovlarini o'tkazish, mustaqil tayyorgarlik ko'rish uchun 24/7 tartibida ishllovchi 200 o'rinni virtual kompyuter sind xonalari zamonaliviy jihozlangan.





(Boshi 4-betda)

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalariga o'tgan 2022 yil qator muvaffaqiyatlarni tuhfa etdi. Talabalar orasidan Mahkamova Munisaxon Prezident stipendiyasi, Ismoilov Ulug'bek "Mard o'g'lon" davlat mukofotiga erishgan bo'lsa, Tursunbayeva Diyora Ibn Sino stipendiyasi sovrindoriga aylandi. Iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Akademiyada faoliyat olib borgan mashhur 13 nafar akademik va 8 nafar professor nomidagi va boshqa nomli, jami 209 ta maxsus stipendiya joriy qilingan.

Yangi ishga olingan xodimlar uchun «Yosh pedagog maktabi» tashkil qilindi. «Yosh pedagog maktabi» yangi ishga qabul qilingan pedagoglar orasida yuqori kasbiy ideallarni, uzluksiz rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlarni shakllantirish uchun pedagoglarni tayyorlash tizimining ajralmas qismidir.

Kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha maxsus me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilganini alohida ta'kidlash joiz. «Toshkent tibbiyot akademiyasida ta'larning kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish tartibi to'grisida» Nizom; «Toshkent tibbiyot akademiyasida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'lmini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha» yo'rqnoma; Bakalavriat ta'lum yo'naliishlari bo'yicha "Kasbiy standartlar", "Malaka talablari" ishlab chiqildi va ular asosida bakalavriatura ta'lum yo'naliishlari bitiruvchilarining kasbiy kompetensiyalari shakllantirildi; Ilg'or xorijiy tajriba va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Davlat ta'lum standarti asosida har bir ta'lum yo'naliishi bo'yicha o'quv rejalar qayta ko'rib chiqildi, ulardag'i fanlar soni optimallashtirildi.

Germaniya bilan hamkorlikda "Tibbiy fizika" mutaxassisligi ochilishi bo'yicha shartnoma imzolandi. INHA universiteti bilan hamkorlikda tibbiyotda IT - texnologiyalari modulini magistr-talabalarga o'tish to'grisida bitim tuzildi; ilk bor 2022/2023 yildan magistraturaga IELTS sertifikatiga ega da'vegarlar qabul qilindi.

Akademianing Jamoat sog'lig'ini saqlash maktabining "Jamoat sog'lig'ini saqlash va sog'liqni saqlashni boshqarish" (Master in Public Health and Healthcare Management) magistratura mutaxassisligi dasturi Yevropa Ittifoqining Jamoat sog'lig'ini saqlash ta'limini akkreditatsiya qilish agentligi (APHEA-Agency for Public Health Education Accreditation) tomonidan xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatlil o'tdi.

Iqtidorli talabalarning yutuqlariga to'xtaladigan bo'sak, Olimpiadalar va turli tanlovlarda 514 nafar talaba g'olib

bo'ldi. Toshkent tibbiyot akademiyasida joriy qilingan nomli stipendiyalar va nominatsiyalar jami 209 tani tashkil etmoqda. Ular orasida Davlat mukofotiga sazovor bolgan talabalarни ham borligi faxr tuyg'usini baxsh etmoqda.

Xalqaro hamkorlik borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. 2022 yilda TTAning xorijiy talabalarining geografiyasi kengaydi. Xorijiy hamkorlar bilan yangi imzolangan shartnomalar soni 80 tadan oshdi. Xorijining nufuzli tibbiyot muassalarining yetakchi mutaxassislari o'quv jarayoniga mutaxassis jaib etildi.

Toshkent tibbiyot akademiyasida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar: o'quv jarayoniga yangi axbort va pedagogik texnologiyalarning joriy etib borilayotganligi, dunyoning ko'zga ko'ringan oliy ta'lum muassasalarini bilan yo'nga qo'yilgan hamkorliklar, ilmiy tadqiqotlar borasidagi ahamiyatga molik yutuqlari, telemeditsina, elektron poliklinika, elektron statsionar, elektron dekanat, VR va AR texnologiyalar, kompyuter sinflari va boshqa elektron dasturlarni o'z ichiga oлган Raqamli universitet, zamonaviy eng oxirgi rusumdagagi robotlar bilan jihozlangan, 24/7 rejimida ishlaydigan simulyatsion markaz, bir vaqtning 1200 nafar kitobxonning foydalanish imkoniyati bor Raqamli Axborot-resurs markazi ta'lum sifatini yaxshilash, kadrlarni saviyasini oshirish yo'lida qo'yilgan katta qadamdir. Ushbu ta'lum muassasanı oldida turgan eng asosiy vazifa - ta'lum sifatini yaxshilash va bitiruvchilarni raqobatbardoshligini oshirish, akademianing xalqaro reytinglarda munosib o'rın egallashiga erishish uchun ta'lими transformatsiya qilish yo'lida xizmat qiladi.

Mamlakatda bo'layotgan keng ko'lamli o'zgarishlarga yurtimiz va xalqimizning farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos bo'ladigan Yangilanayotgan Konstitutsiyaga Toshkent tibbiyot akademiyasi ham befarq emas.

Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya'ni, Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga orttdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi.

Konstitutsiyamizdagidagi moddalar ko'payib, unga turli yo'naliishlarda o'zgarishlar kiritilib, inson erki, qadr-qimmati asos qilib olindi. Chunki, inson erkin bo'lib, bu dunyoga kelar ekan, demak erkin yashashi lozim. Har bir insонning qadr-qimmati bo'lishi, davlat va jamiyat esa bunga sharoit yaratib berishi kerak.

Qonun loyihasida fugarolarning malakali tibbiy xizmat ko'rsatishiga, sog'lam tabiiy muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlash, ekologik tizimni muhofaza qilish va tiklash, uni ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish yuzasidan zarur choratadbirlarni ko'rishi nazarda tutilmoqda. Ta'limgi, ilm-fanni, millatni va xususan, yoshlarni ma'naviy jihatdan qo'llab-

quvvatlashning aniq konstitutsiyaviy kafolatlarini nazarda tutilmoqda.

Konstitutsiya loyihasida 18 milliondan ortiq yoshlarimiz masalasiga ham e'tibor berilib, ularning ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati ekani belgilanmoqda. Bosh qomusimizda yoshlar uchun alohida bob ajratilmoqda.

Bundan tashqari, oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi taqdim etilmoqda. Konstitutsiyamizga ushbu normaning kiritilishi professor-o'qituvchilar va talabalarining o'quv jarayonidagi mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jumladan, keyingi yillarda ko'plab nodavlat oliy o'quv yurtlari ochildi, xorijiy universitetlari filiallari soni ortmoqda, 41 ta davlat oliy o'quv yurtiga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi.

Oliy ta'lim uchun zaruriyati o'ta muhim deb e'tirof etish mumkin bo'lgan Konstitutsiyaga 411-moddaning qo'shilishi taklifi yana bir muhim yangilikdir. Unga ko'ra: "Har kim davlat ta'lum tashkilotlarida tanlov asosida bepul oliy ma'lumot olishga haqli. Oliy ta'lum va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari qonunda belgilangan doirada o'zini o'zi boshqarish, akademik erkinlik, shuningdek, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega. Davlat ilm-fanni rivojlantirishga, jahon ilmiy hamjamiyati bilan ilmiy aloqalar o'rnatishga ko'maklashadi".

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega" deb belgilab qo'yilgan. Ushbu modda davomi sifatida "Fuqarolar tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini bepul olish huquqiga ega" degan qo'shimcha kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnda xalqimiz muallifligida ya'ni jamoatchilik takliflari asosida, ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlarni o'rgangan va qo'llangan holda shakllantirgan xalqchil Konstitutsiya o'zimizning ekanligini ta'kidlash joiz. Quvonarli Asosiy Qonunimiz sizu bizning, har bir vatandoshimizning xohish irodasidan ifoda etadi. Demak, o'z kelajagini shu yurt taqdiri bilan bog'lagan har bir inson muhim tarixiy voqeа Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha o'tkaziladigan referendumga befarq bo'lmaydi.

Xalq farovonligi yo'lida xizmat qilayotgan TTAning jonkuyar xodimlarini ham yurtdoshlarimiz qatorida xalqimiz taqdiri va ertangi kunini belgilab beradigan tarixiy hujjat loyihasiga befarq bo'lmay o'z hissasini qo'shishga chorlab qolaman.





## MAMLAKATIMIZDA TIBBIY TA'LIM YO'NALISHIDAGI YIRIK KAMPUS ISH BOSHLADI

**Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti yangi kampusining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tantanali tadbirda Sog'liqni saqlash vaziri Amrillo Inoyatovning tabrigi o'qib eshittirildi.**

Marosimda viloyat mas'ullari, mamlakatimizdagi tibbiyot oliy o'quv yurtlari hamda davolash muassasalarini rahbarlari, xorijiy hamkor tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Mehmonlar yangi kampusning imkoniyatlari va bu yerda joylashgan zamonaviy klinika hamda simulyatsion markaz faoliyatiga yuqori baho berdi.

Ta'kidlash joizki, mazkur bino qurilishiga Prezidentimizning 2017 yil mart oyida

Buxoro viloyatiga safari davomida berilgan topshiriqlar asos bo'lgan edi.

Ma'lumot o'rniда: Buxoro davlat tibbiyot instituti 1990 yilda tashkil topgan. Bu yerda 8 ta fakultet va 42 ta kafedra, 12 ta bakalavriat hamda 24 ta mutaxassislik bo'yicha magistratura yo'nalishlari faoliyat ko'rsatmoqda. Kelgusi o'quv yilidan yana 2 ta yangi fakultet, 3 ta kafedra, 1 ta bakalavriat va 6 ta magistratura yo'nalishida mutaxassislik ochilishi ko'zda tutilgan.



Kunning ikkinchi yarmida, yangi foydalanishga topshirilgan tibbiyot instituti binosida mamlakatimiz tibbiy oliv ta'lif muassasalari rektorlarining rayosat kengashi yig'ilishi bo'lib otdi. Unda milliy tibbiyot va farmasevtika ta'lifini modernizatsiya qilish, ushbu sohaga xalqaro ta'lif standartlarini joriy etish, aholi salomatligini muhofaza qilishning dolzarb muammolari bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, talabalarga ma'nnaviy-axloqiy tarbiya berishning samarali tizimini yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirish masalalari borasida so'z bordi.

**Sog'liqni saqlash vazirligi  
Matbuot xizmati**



## ILMLI AYOL – MILLAT TAYANCHI

Toshkent tibbiyot akademiyasi "Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya" kafedrasi xodimlari tashabbusi bilan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida Respublika oila va xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda "Ilmi ayol – millat tayanchi" mavzusida davra suhbati o'tkazildi.

Tadbirda "Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya" kafedrasi xodimlaridan – tibbiyot fanlari nomzodi, assistant Gulnoza Jo'rayeva va ma'nnaviyat ishlariga mas'ul katta o'qituvchi, tibbiyot fanlari nomzodi

Kurshida Shodiyeva, universitet birinchi prorektori Feruza Madraximova, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi xotin-qizlar o'rtaсиda ilm-fan innovatsiyalarni rivojlantirish bo'limi boshlig'i, texnika fanlari doktori, professor Karima Norqulova ishtirok etdi. Ular tomonidan "Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishda xotin-qizlarning o'rni" hamda "Sog'lom ona, sog'lom bola va sog'lom oila" mavzusida ma'ruzalar qilindi. Davra suhbati davomida talaba-qizlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.





## ROSSIYA FEDERATSIYASINING SIBIR DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI DELEGATSIYASINING TASHRIFI

Tashrif davomida delegatsiya vakillari tomonidan ma'ruzalar o'qildi. Shuningdek, delegatsiya rahbari Sibir davlat tibbiyot universiteti rektori, professor Kulikov Evgeniy Sergeevichga tibbiy ta'lif va ilm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan shaxsiy hissasi uchun Toshkent tibbiyot akademiyasining faxri professori unvoni berildi.



### **Tarixiy manbalarga ko'ra, Sharq xalqlarining qadimiy bayrami bo'lmish Navro'z Turon va Eron xalqlarining zardushtiylik e'tiqodi asosida shakllangan shodiyona bo'lib, bayram qilish ahmoniyilar davridan boshlangan deyiladi.**

Navro'zning tabiatga bog'liqligi shundaki, bir yilda kun va tunning o'zaro nisbatli bilan bog'liq to'rt nuqta bo'lsa, shuning birinchisi Navro'z bo'lib, 21-mart ya'nini bahorgi teng kунлilik, bir kecha-kunduzning 12 soati yorug', qolgan 12 soati qorong'u bo'ladi. Navro'zdan e'tiboran endi kunning hissasi ortib, tunning hissasi qisqarib boraveradi. Bu jarayon to 22 iyungacha davom etadi. Bunda endi kun - eng uzun, tun - esa eng qisqa bo'ladi.

Navro'z faqat bahoriy kecha va kunduzning tenglashgan kuni - 21 martni anglatmaydi, qolaversa, u bir kundagina nishonlanadigan bayram bo'lmay, balki bir oycha davom etadigan umumxalq shodiyonasi, bahor va dehqon bayrami sanalgan.

B'a zi manbalarda dastlabki 7 kun - Navro'zning birinchi bosqichi bo'lib, bayramning eng avjiga chiqqan davri hisoblangan. Tabarruk shu kunlar mohiyati sehrli yetti raqamida in'ikos topgan. O'tmishda Navro'z dasturxoniga yetti xil

taomning qo'yilishi, yetti xil ko'katdan ko'k somsa tayyorlanishi, yetti xil dondan "navro'z go'ja" pishirilishi, xalq iborasi bilan aytganda "ilik uzildi" ya'nini tibbiyot tilida odamda vitaminlarni kamaygan davri hisoblanib, tayyorlanadigan taomlar vitaminlarga boyligi bilan bog'liqligi fanda o'z isbotini topgan. Shu yetti kun davomida kamonchilar musobaqasi o'tkazilib,

kuni qishloq joylarda bolalar to'p-to'p bo'lib xonardonlar eshigi oldida bayramga bag'ishlangan qo'shiqlar aytishgan. Xonodon egasi ularni sovg'a-salom va yeguliklar bilan siylaganlar. Bolalar yeguliklarning bir qismini qishloqdagagi yolg'iz-keksalar va nogironlarga ularishgan.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Navro'z bayrami

muddati ko'chirilganligi ma'lum. Navro'z bayrami odamlarni tabiat bilan uyg'un bo'lib yashashlariga undagani sababli ham bahorda tantana bilan nishonlanishi albatta kishi kayfiyatini ko'tarib yuboradi, shu jihatdan davrlar osha yashovchanligini tasdiqladi.

Navro'z - xalqimizning ming yilliklar bilan bo'y o'lchashadigan milliy ma'naviy qadriyati.

Respublikamizda Navro'zning umumxalq bayramiga aylantirilishi odamlarni tabiat bilan uyg'un bo'lib yashashga undaydi. Har kim o'z yurtining

tabiatiga mehr qo'yadi, insонning yashashiga ishtiyoqi, zavqini oshiradi, hayotga munosabatini faollashiradi, yaratuvchanlik ishqini jo'sh urdiradi. Bu esa o'z navbatida Vatanga muhabbatni yanada mustahkamlaydi. Shuning uchun ham Navro'z Sharq xalqlarining yashash va yasharish ayyomi bo'lib golaveradi.

**B.YESHMURATOV,  
Sud tibbiyoti va tibbiyot  
huquqi  
kafedrasi dotsenti**

### **NAVRO'Z – SHARQ XALQLARI BAYRAMI**

yettinchi kuni nishonga oltin tanga qo'yilishi kabi an'analarga amal qilingan. Navro'z "qozon to'ldi" marosimidan boshlanib, sumalak, "kelin ko'rdi", halim sayli, otchopar, uloq, kurash singari xalq o'yinlari, sayillar, bahor haqidagi qo'shiqlar kuylangan. Bundan tashqari, lola sayli, boychechak, bir-birlarning hol-ahvolidan xabar olish, hashar va shoh moylash kabi o'nlab an'analar bilan aprel oyida ham davom etgan. Navro'zning birinchi

sharqona bayram sifatida tafsiflash an'anaga aylangan. Navro'z joriy etilgandan keyin otgan davri mobaynida bir qancha taziyiq va ta'qiblarga uchragan. Umar Hayyom "Navro'znomma" asarida Navro'zni bayram sifatida o'tkazish muddatlarini ayrim Ajam podoshohlari davrida Aqrab yoki Saraton burjlariga ko'chirganligi haqidagi ma'lumotlarni keltirgan. O'rta asrlarda Abbosiylar halifaligi davrida ham Navro'zning nishonlanish



# TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2023 yil mart)

Nº	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
<b>1-son davolash fakulteti</b>		
1.	Onkologiya	assistant – 1,0
2.	1-son travmatologiya, ortopediya va harbiy dala jarrohligi	assistant – 1,0
3.	1-son ichki kasalliklari propedevtikasi	assistant – 1,0
4.	Normal va patologik fiziologiya	assistant – 1,0
<b>2-son davolash fakulteti</b>		
1.	2-son travmatologiya, ortopediya, harbiy dala jarrohligi va neyroxirurgiya	assistant – 1,0
2.	Klinik farmakologiya	assistant – 1,0
<b>Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti</b>		
1.	2-son ichki kasalliklar propedevtikasi	assistant – 1,0
2.	2-son fakultet va gospital xirurgiya, transplantologiya	assistant – 1,0
3.	Ftiziatriya va pulmonologiya	assistant – 1,0
<b>Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti</b>		
1.	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari	assistant – 1,0
<b>Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OMH fakulteti</b>		
1.	Ijtimoiy fanlar	dotsent – 1,0
<b>Malaka oshirish fakulteti</b>		
1.	1-son fakultet va gospital xirurgiyasi	assistant – 1,0
<b>Xalqaro fakultet</b>		
1.	Tibbiy va biologik kimyo	dotsent – 1,0

**Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.**

**Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.**

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent Tibbiyot akademiya RISOGRAFida  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun ma'sul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda 02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun mualliflar javobgardir  
Bepul tarqatiladi